

TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA OPERATSIYALARI AMALIYOTINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Юсупов Азиз Шухратович

**Тошкент давлат иқтисодиёт университети ҳузуридаги “Ўзбекистон
иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари илмий
тадқиқот маркази”нинг тадқиқотчиси**
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18325661>

Global moliyaviy integratsiya sharoitida tijorat banklarida valyuta operatsiyalari amaliyotini shakllantirish nafaqat banklarning daromadlilikini oshirish, balki butun moliya tizimining makrobarqarorligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Valyuta operatsiyalari bank balansining aktiv va passivlar tarkibiga bevosita ta'sir ko'rsatib, foiz, likvidlik va valyuta risklarining o'zaro uzviy bog'liqligini kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasida valyuta siyosatini bosqichma-bosqich liberallashtirish natijasida tijorat banklarining ichki valyuta bozoridagi roli sezilarli darajada kengaydi. Xususan, Markaziy bankning bozorni to'liq regulyator sifatida emas, balki ishtirokchi sifatida qatnashishga o'tishi tijorat banklarining market-meykerlik funksiyasini faollashtirdi. Bu jarayon valyuta kursining talab va taklif asosida shakllanishiga xizmat qilgan bo'lsa-da, banklarning ochiq valyuta pozitsiyalarini boshqarish bo'yicha institutsional salohiyatiga yuqori talablarni yuzaga keltirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5177 - sonli Farmoni amaldagi valyutani tartibga solish tizimini tubdan isloh qilish, valyuta siyosatini liberallashtirish, barcha tadbirkorlik sub'ektlariga tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishda teng sharoitlar yaratishga qaratilgan. Valyuta kursi siyosatining tashqi savdoni rag'batlantirishdagi rolining susayishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar tovar va xizmatlari narxlarining tashqi va ichki bozordagi raqobatdoshligini pasaytirdi.

Mamlakatimizda faqatgina bozor mexanizmlari asosida faoliyat ko'rsatadigan valyuta bozorini shakllantirish barcha banklarning mijozlar (yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar) ehtiyojlarini qondirish maqsadida chet el valyutasini sotib olish va sotish uchun valyuta birjasi savdolarida erkin ishtirok etishini, shuningdek, mijozlarning chet el valyutasini sotib olish bo'yicha amaldagi tartib va texnik reglamentlariga rioya etgan holda o'z valyuta mablag'larini hech qanday cheklovsiz tasarruf etishini taqozo etadi.

Z.U.Berdinazarov devalvatsiya va eksport elastikligi o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilar ekan, O'zbekistonda uzoq yillar mobaynida amalga oshirilgan «uzluksiz» devalvatsiya siyosati aksariyat hollarda samarasiz bo'lgan, degan xulosaga keladi.

Biroq, C.Chepel 1998-2003 yillarda real almashuv kursi va eksport dinamikasini tahlil qilish asosida so'mning yuqori sur'atlardagi devalvatsiyasi real almashuv kursining pasayishi hisobiga eksportyorlarga yanada qulayroq sharoitlarni ta'minlaganligini e'tirof etadi.

N.Sirojiddinov 2017 yilga O'zbekistonda amal qilgan valyuta rejimini tahlil qilar ekan, uning mamlakat savdo balansi muvozanatini ta'minlashning eng oddiy va ishonchli usuli vazifasini o'tashini, biroq modernizatsiya, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish jarayonlarini cheklovchi bosh omil bo'lib xizmat qilishini ta'kidlagan.

Taniqli rus iqtisodchi olimi L.N.Krasavinaning fikricha, valyuta siyosati quyidagi to'rt yo'nalishlarni qamrab olgan holda kompleks amalga oshirilishi kerak: kurs siyosati samaradorligi oshirish; xalqaro rezervlarni boshqarishni takomillashtirish; valyutani tartibga solish samaradorligini oshirish; milliy valyutaning baynalminallashuvini kuchaytirish.

1-jadval

Jismoniy shaxslarning tijorat banklaridagi chet el valyutasidagi depozitlari qoldig'i¹

Sana	Jami	Talab qilib olinguncha	Jamg'arma	Muddatli
01.01.2024	29 141,5	13 602,7	323,6	15 215,2
01.02.2024	28 834,0	13 294,5	313,3	15 226,3
01.03.2024	28 708,3	13 190,1	371,4	15 146,8
01.04.2024	28 869,1	13 152,0	427,5	15 289,6
01.05.2024	30 068,9	14 013,2	436,3	15 619,3
01.06.2024	30 146,3	13 620,5	406,4	16 119,4
01.07.2024	31 240,2	14 540,5	418,3	16 281,4
01.08.2024	31 750,1	15 051,0	465,1	16 234,0
01.09.2024	31 816,7	14 832,3	504,1	16 480,2
01.10.2024	31 938,6	14 631,8	532,6	16 774,3
01.11.2024	32 635,4	14 746,9	561,0	17 327,5
01.12.2024	33 137,4	15 523,9	601,1	17 012,4
01.01.2025	34 190,4	16 138,6	658,1	17 393,7
01.02.2025	34 519,7	15 918,9	716,0	17 884,8
01.03.2025	34 291,2	15 700,7	755,6	17 834,9
01.04.2025	34 783,6	16 111,7	789,7	17 882,2
01.05.2025	34 973,2	16 147,3	842,5	17 983,4
01.06.2025	35 104,7	15 666,0	897,0	18 541,6
01.07.2025	35 976,4	16 319,7	947,9	18 708,8
01.08.2025	36 495,6	16 535,1	1 057,7	18 922,8
01.09.2025	36 457,6	16 233,4	1 097,1	19 137,1
01.10.2025	35 074,8	15 079,5	1 255,4	18 739,9

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlari jismoniy shaxslarning tijorat banklaridagi chet el valyutasidagi depozitlari hajmi 2024 yil boshidan 2025 yil sentyabr oyigacha bo'lgan davrda barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lganini ko'rsatadi. Xususan, mazkur davrda jami chet el valyutasidagi depozitlar qoldig'i 29 141,5 mlrd so'mdan 36 457,6 mlrd so'mgacha oshib, valyuta depozitlarining bank resurs bazasidagi ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi. Bu holat tijorat banklarida valyuta operatsiyalari amaliyotini shakllantirishda aholi jamg'armalarining muhim manba sifatida namoyon bo'layotganini ko'rsatadi.

Depozitlar tarkibiy tuzilmasi tahlili shuni ko'rsatadiki, talab qilib olinguncha depozitlar umumiy hajmda yetakchi ulushni saqlab qolayotgan bo'lsa-da, ularning o'sish sur'ati nisbatan

¹ <https://cbu.uz/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

beqaror xarakterga ega. Bu holat aholi tomonidan chet el valyutasidagi mablag'lardan qisqa muddatli likvid aktiv sifatida foydalanish tendensiyasining saqlanib qolayotganini anglatadi. Natijada, tijorat banklari uchun likvidlikni boshqarish va ochiq valyuta pozitsiyalarini muvozanatlash masalalari dolzarblashmoqda.

Jamg'arma depozitlari hajmining izchil o'sishi esa aholining chet el valyutasidagi jamg'armalarni bank tizimi orqali saqlashga bo'lgan ishonchi mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Bu jarayon tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini shakllantirishda uzoqroq muddatli resurs bazasini kengaytirish imkonini yaratib, valyuta risklarini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, jamg'arma depozitlari ulushining ortishi banklarning konversion va investitsion valyuta operatsiyalarini kengaytirish uchun zarur institutsional sharoitlarni vujudga keltiradi.

Muddatli depozitlar hajmining sezilarli oshishi tijorat banklarida valyuta operatsiyalari amaliyotini shakllantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Chunki muddatli depozitlar banklarga nisbatan barqaror va prognoz qilinadigan valyuta resurslarini taqdim etib, spot, forvard va svop operatsiyalarini rivojlantirish imkonini beradi. Natijada, tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarini samarali boshqarish hamda valyuta kursi tebranishlaridan kelib chiqadigan xatarlarni kamaytirish imkoniyatlari kengayadi.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, jismoniy shaxslarning chet el valyutasidagi depozitlari hajmi va tarkibidagi ijobiy siljishlar tijorat banklarida valyuta operatsiyalari amaliyotini shakllantirish uchun mustahkam resurs bazasini yaratmoqda. Shu bois, banklar ushbu resurslardan samarali foydalanish maqsadida valyuta risklarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, market-meykerlik faoliyatini kuchaytirish hamda zamonaviy moliyaviy instrumentlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy dollarlashuv darajasining yuqoriligi sharoitida milliy valyutaning qadrsizlanishi bank sektorida tizimli risklarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, tijorat banklarida valyuta operatsiyalari amaliyotini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida spot, forvard va svop instrumentlaridan faol foydalanish orqali valyuta risklarini xedjirlash mexanizmlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, tijorat banklari va Markaziy bank o'rtasidagi valyutaviy svop operatsiyalarining institutsional asoslarini mustahkamlash banklarning qisqa va uzoq muddatli ochiq valyuta pozitsiyalarini optimallashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda, yuridik shaxslar o'z mablag'larini banklarda joriy xalqaro valyuta operatsiyalarini, shu jumladan, tovar, ish va xizmatlar importi, foydani repatriatsiya qilish, kreditlarni qaytarish, xizmat safari xarajatlarini to'lash va boshqa savdo xarakteriga ega bo'lmagan operatsiyalarni amalga oshirish uchun chet el valyutasiga cheklovlersiz erkin konvertatsiya qilishlari mumkin.

Ta'kidlash joizki, joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha to'lovlarni banklardagi hisobvaraqlar orqali amalga oshirishda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan bozor kursida chet el valyutasini sotib olish imkoniyatining yaratilishi «yashirin» iqtisodiyotning qisqarishiga va pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb qilishga xizmat qiladi. Jismoniy shaxslar ham tijorat banklarining konversion bo'limlarida chet el valyutasini erkin sotib olishi, sotib olingan mablag'larni xalqaro to'lov kartalariga o'tkazib, ulardan xorijda hech qanday cheklovlersiz, shu jumladan, bank hisobvaraqlari orqali xorijda o'qish, davolanish va boshqa maqsadlardagi to'lovlar uchun foydalanishi mumkin.

Xalq iste'mol tovarlarini import qilish bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar banklardagi hisobvaraqlarida savdo tushumini va boshqa daromadlarini jamg'arib borgan holda keyinchalik uni jismoniy shaxslar uchun o'rnatilgan tartibda, ya'ni sotib olingan valyuta mablag'larini xalqaro to'lov kartalariga o'tkazish va chet elda cheklovlersiz, shu jumladan, tovarlarni import qilish uchun ishlatishi mumkin.

Aholidan naqd chet el valyutasini sotib olish tijorat banklarining barcha filial va minibanklari tomonidan cheklanmagan miqdorda va sarsongarchiliksiz amalga oshiriladi. Tijorat banklarida valyuta operatsiyalari amaliyotini shakllantirish bozor mexanizmlariga tayangan holda, prudensial nazorat talablarini kuchaytirish, valyuta risklarini faol boshqarish va zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilishi lozim. Mazkur yondashuv bank sektorining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda, milliy valyutaga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 2 сентябрдаги «Валюта сиёсатини либераллаштириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-5177 – сонли Фармони
2. Жумаев Н.Х. Ўзбекистонда валюта муносабатларини тартибга солиш методологиясини такомиллаштириш. «Fan va texnologiya», 2007 й. – 232 б.
3. Бердиназаров З.У. Валюта сиёсати методологиясини такомиллаштиришнинг назарий ва амалий асослари. Монография. – Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2018. – 254 б.
4. Чепель С.В. Либерализация валютного рынка в Узбекистане и перспективы укрепления потенциала экономического развития. URL: <http://www.uzbearingpoint.com/files/2/a13.pdf>.
5. Sirajiddinov, N. (2017) "Currency regime of Uzbekistan: goals, consequences, ways to improve," International Relations: Politics, Economics, Law: Vol. 2017: Iss. 1, Article 8. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/intrel/vol2017/iss1/8>
6. Красавина Л. Н. Концептуальные подходы к проблеме модернизации международных валютных, кредитных, финансовых отношений России в аспекте современных мировых вызовов // Деньги и кредит. 2014. № 10. – С. 47-49.